

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XARIDLARI VA UNDAGI MAVJUD MOLIYAVIY RISKLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11396908>

Charos Ro‘zimurodova, *TDUI magistranti*

Email: abdulakhatovacharos@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat xaridlarining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida zarurligi, turlari va unda mavjud bo‘lgan moliyaviy risklar turlari va tasniflari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat xaridlari, byudjet buyurtmachisi, korporativ buyurtmachi, xarid tizimi, moliyaviy risklar.*

Davlat xaridi davlat organlarining funksiyasini bajarishi uchun qiladigan xarajatlarning asosiy qismini tashkil etib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va investitsiya oqimini ta‘minlash uchun ham qulay shart-sharoitlar shakllanishining muhim omillaridan biri bo‘lib kelmoqda. Davlat xaridlari – davlat buyurtmachilarining ehtiyojlari uchun kerak bo‘lgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni belgilangan tartib-taomillar asosida sotib olish jarayonidir.

Davlat xaridlarining subyektlari – bu davlat xaridlari tizimida ishtirok etuvchi subyektlari hisoblanadi va ular tarkibini quyidagilar ikki yirik guruhga bo‘lishimiz mumkin: byudjet va korporativ buyurtmachilar.

Byudjet buyurtmachilari –bu davlat organlari va muassasalari(vazirliklar, sud, prokuratura, hokimiyat va h.k); byudjet tashkilotlari (maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktablar va h.k); xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan byudjet mablag‘larini oluvchilar (muzeylar, siyosiy partiyalar, ilmiy – tadqiqot institutlari va h.k); davlat maqsadli jamg‘armalari (pensiya jamg‘armasi, Tiklanishva taraqqiyot jamg‘armasi va h.k); byudjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar ular sirasiga kiradi.

Korporativ buyurtmachilar –bu davlat korxonalari (“Toshkent Metropoliteni” davlat unitar korxonasi, “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi va h.k); ustav

fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar (O'zbekneftgaz AJ, O'zbekiston temir yo'llari AJ va h.k); ustav fondida davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar (UzAuto PV, Energo Res MCHJ va h.k)¹⁴.

Davlat xaridlarini quyidagi turlari bo'lishimiz mumkun:

1. To'g'ridan –to'g'ri
2. Elektron do'kon
3. Auksion
4. Eng yaxshi takliflarni tanlash
5. Tender

Davlat xaridini rejalashtirishdagi mavjud muammolarning sabablari quyidagilardir:

- byudjet tizimining takomillashmaganligi
- byudjetni shakllantirish faqat bir yil chegarasida bo'lib, unda o'tgan yil byudjetida ko'zda tutilgan va tugallanmagan loyihalarni moliyalashtirish majburiyati ko'rsatilmaydi;
- davlat byudjetini shakllantirishning uslubiy asoslarining yetarli darajada takomillashmaganligi, ya'ni daromad va xarajat moddalarini rejalashtirish sifatining past darajada ekanligi;
- davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish uslubiyotining mavjud emasligi va boshqalar.

Tumanlar darajasidan boshlab, xarajatlar smetasi hajmini sun'iy yuqori darajada tuzish riskining mavjudligi, ko'zlanayotgan xarajat maqsadlarini ko'rsatishning sifat darajasining pastligi, shuningdek, smetani to'g'riligini va ko'rsatilgan xarajatlarni asoslanganligini obyektiv tarzda tekshirish usulining yetishmasligi kabi holatlar, byudjetni shakllantirishda me'yoriy-xarajat usulidan foydalanishga majbur etadi. Ushbu usulni qo'llashning foydalanishga majbur etadi.

¹⁴ O'roqov U.Yu. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. T.:«Nihol print» OK, 2022.

Texnik usullar bitim ishtirokchilarini bir-birlari bilan uchrashish imkoniyatini yo'qotib yoki korrupsionerni qo'lga tushib qolish riskini oshiradi, sotib oluvchi bo'linmalar va sotuvchilar o'rtasida til biriktirishlarni oldini oladi va ushbu imkoniyatni sezilarli darajada pasaytiradi. Bunday usullar sirasiga:

Xarid bilan shug'ullanuvchi xodimning muzokoralar olib boruvchi xonalarini nazorat tizimi va videokuzatuv uskunalari bilan jihozlash. Ushbu tizimning analogi sifatida AQSh yo'l polisiyasida qo'llaniladigan antikorrupsion tizimni keltirish mumkin. Ya'ni unga ko'ra, yo'l pohsiyasi xodimining qoidabuzar bilan munosabati, faqatgina patrul xizmati mashinasida o'matilgan maxsus videokamera qarshisida amalga oshirilishi lozim.

Shuningdek davlat xaridlarining har bir turida mavjud bo'lgan asosiy risklardan biri hisoblangan texnik risk hozrgi kunga qadar dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Buni quyidagicha izohlashimiz mumkun ya'ni, biron bir xaridni amalga oshirish jarayonida tabiiy va sun'iy ravishda internet tarmog'i yoki elektr toki uzilishi oqibatida xarid jarayoni to'liq amalga oshmasligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Davlat xaridlaridagi yana bir riski bu inson omili riski bo'lib, jarayon olib borishda insonlar tomonidan bajarilgan xatoliklar va kamchiliklardir. Misol uchun, tender savdolarini o'tqazish jarayonida talab qilingan hujjatlar pudratchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar tekshirilmasdan past ball bilan baholanishi yoki xato hujjatga adolatli baholanmagani hisoblanadi.

Keying moliyaviy risklardan biri bu bozor riski hisoblanadi. Bu risk buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan biron bir xaridda g'olib bolgan yetqazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning ishonchliligi va jarayon qonun hujjatlarga asosan bajarilishidir.

Hozrgi kunda davlat xaridlarini takomillashtirish va shaffofligini oshirish yo'li bilan yuqorida ko'rsatilgan risklar chetlab o'tilmoqda. Bu orqali davlat byudjetida mavjud bo'lgan xarajatlar oqilona foydalanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlaritog'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni. 22.04.2021 yil
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil.
3. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom
4. "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarning samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident qarori PQ-128-son, 14.02.2022 yil.
5. U O'roqov. O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari. 2014
6. U O'roqov. Davlat xaridlari tizimida elektron xaridlar hajmini oshirish masalalari. 2021 Uchqun O'roqov, Ulugbek Sharipjon O'g'li. Hadli kelishuv tartib-taomili orqali davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi. - Science and Education, 2023
7. U Yu O'roqov. Davlat xaridi. - O'quv qo'llanma. T.:«Nihol print» OK, 2022
8. Uchqun Yunusovich O'roqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. - Science and Education, 2022
9. Uchqun O'roqov, Javohir Yomg'Irov. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari: afzalliklari va kamchiliklari. - Science and Education, 2022
10. U O'roqov. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash yo'llari. -2017